

DAVLAT BUDJETI TAQCHILLIGI VA UNI MOLIYALASHTIRISH MANBALARI

STATE BUDGET DEFICIT AND ITS FINANCING SOURCES

¹Bolibekov Baxtiyor
Achilovich, ²Rahmonqulov
Temirbek Eshmamatovich

¹Fan va texnologiyalar universiteti, "Moliya va moliyaviy texnologiyalar" kafedrası i.f.n., dotsenti, ²Fan va texnologiyalar universiteti, "Moliya va moliyaviy texnologiyalar" kafedrası katta o'qituvchisi. E-mail: traxmonqulov@inbox.ru

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Ushbu maqolada bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning iqtisodiyotdagi o'rni hamda moliyaviy siyosatni amalga oshirish jarayonida davlat budjetining ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda davlat budjeti orqali iqtisodiy resurslarning qayta taqsimlanishi, ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish hamda iqtisodiy o'sishni ta'minlash mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, budjet taqchilligining kelib chiqish omillari, uning makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri va taqchillikni moliyalashtirish manbalari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari asosida budjet siyosatini samarali boshqarish, taqchillik hajmini iqtisodiy imkoniyatlarga mos ravishda tartibga solish hamda moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim omil ekanligi yuzasidan xulosalar shakllantirilgan.

Eng. - This article analyzes the role of the state in the economy under market conditions and examines the importance of the state budget in the implementation of fiscal policy. The study highlights the redistribution of economic resources through the state budget, the financing of social programs, and the mechanisms that ensure economic growth. In addition, the causes of budget deficits, their impact on macroeconomic stability, and the main sources of deficit financing are discussed. Based on the research findings, conclusions are drawn that effective management of budget policy, regulation of the deficit level in accordance with economic capacities, and efficient use of financial resources are crucial factors in ensuring the country's economic stability.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ davlat budjeti, budjet taqchilligi, moliyaviy siyosat, budjet muvozanati, iqtisodiy barqarorlik, budjet daromadlari, budjet xarajatlari, moliyalashtirish manbalari, davlat qarzi, fiskal siyosat.

❖ state budget, budget deficit, financial policy, budget balance, economic stability, budget revenues, budget expenditures, financing sources, public debt, fiscal policy.

Kirish.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat budjeti mamlakat iqtisodiy tizimining eng muhim tarkibiy qismi bo'lib, u orqali iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish, ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish va iqtisodiy

o'sishni ta'minlash amalga oshiriladi. Davlat budjeti yordamida iqtisodiy resurslar qayta taqsimlanadi, strategik tarmoqlarni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi hamda aholining turmush darajasi oshiriladi.

So'nggi yillarda global iqtisodiyotda kuzatilgan murakkab vaziyatlar fonida ham O'zbekiston milliy iqtisodiyoti barqaror o'sishni saqlab qolib, yalpi ichki mahsulot 6,5 foizga oshdi [1]. Bu esa davlat moliyasining nisbatan samarali boshqarilayotganidan va iqtisodiy siyosatning izchil olib borilayotganidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, iqtisodiy o'sish bilan bir qatorda ayrim davrlarda budget taqchilligi muammosi ham yuzaga chiqadi. Bu holat davlat daromadlari va xarajatlari o'rtasida muvozanatning buzilishi natijasida vujudga keladi. Budget taqchilligi davlat moliyasining barqarorligiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omil bo'lib, uni kamaytirish va moliyalashtirish manbalarini oqilona tanlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Taqchillikni bartaraf etishda ichki va tashqi qarz mablag'larini jalb etish, fiskal intizomni kuchaytirish, budget xarajatlarining samaradorligini oshirish hamda soliq bazasini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, budget taqchilligining sabablari, oqibatlar va uni moliyalashtirish manbalarini chuqur tahlil qilish har bir mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda strategik ahamiyatga ega [2].

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Davlat moliya tizimi va budgetning iqtisodiy mohiyati qadim zamonlardan beri iqtisodchi olimlar tomonidan o'rganib kelinadi. Bu borada G'arb va Sharq mutafakkirlarining qarashlari o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Klassik iqtisodiy nazariya vakillari A. Smit [3] va D. Rikardo [4] o'z asarlarida davlat budjeti daromadlarining shakllanishida soliq tizimining o'rnini va vazifalarini tahlil qilganlar. Ular davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini minimal darajada cheklash tarafdorlari bo'lib, davlatning asosiy vazifalarini mudofaa va ijtimoiy sohalarni qo'llab-quvvatlash deb bilganlar. Ularning fikricha, iqtisodiy rivojlanish jarayoni asosan

bozor mexanizmlari — talab va taklif qonunlari orqali muvozanatlanadi.

Yalpi talabning pasayishi davrida davlatning iqtisodiyotga aralashuvi masalasi ilk bor A. Marshall [5] ilmiy izlanishlarida ko'tarilgan. Keyinchalik bu g'oya J.M. Keynes [6] tomonidan yanada chuqurlashtirilib, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda davlat budjeti vositalarining faol rol o'ynashi zarurligi ilmiy asoslab berilgan. Keynes nazariyasiga ko'ra, iqtisodiyotda turg'unlik yoki pasayish davrida davlat xarajatlarini oshirish orqali yalpi talabni rag'batlantirish mumkin.

Sharq allomalari ham moliya va budget masalalariga alohida e'tibor berganlar. Xususan, Ibn Haldun va Abu Nasr Al-Farobiy asarlarida davlat xarajatlari, ularning ijtimoiy mazmuni va iqtisodiy rivojlanishdagi o'rnini yoritib o'tilgan. Ularning qarashlarida davlat mablag'laridan oqilona foydalanish, adolatli soliqqa tortish va jamoat manfaatini ta'minlash g'oyalari asosiy o'rin tutgan.

Zamonaviy o'zbek olimlari, professor T.S. Malikov va N.X. Haydarov [7] budget daromadlarini quyidagicha ta'riflaydilar:

"Pul mablag'lari fondlarini shakllantirish jarayonida vujudga keluvchi iqtisodiy (moliyaviy) munosabatlarni ifoda etadigan, hokimiyat organlarining turli darajalari ixtiyoriga kelib tushadigan, davlat funksiyalarini bajarish uchun zarur bo'lgan davlat markazlashtirilgan moliyaviy resurslarining bir qismi budget daromadlari deyiladi."

Ushbu ta'rif davlat budjetining mohiyatini, uning iqtisodiy munosabatlar tizimidagi o'rnini va davlat funksiyalarini moliyaviy jihatdan ta'minlashdagi ahamiyatini aniq ifodalaydi.

Shunday qilib, tarixiy va zamonaviy adabiyotlarda davlat budjeti iqtisodiy siyosatni amalga oshirishning asosiy vositasi sifatida talqin etilib, uning daromadlari, xarajatlari hamda muvozanatini ta'minlash masalalari iqtisodiy barqarorlikning poydevori sifatida e'tirof etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot davomida iqtisodiy voqelik jarayonlarini o'rganishning ilmiy usullari - umumlashtirish, guruhlashtirish va taqqoslama usullar, monografik tadqiqot, iqtisodiy kuzatish, abstrakt-mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil, statistika, istiqbolli prognozlash va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti taqchilligi (defitsiti) mamlakat fiskal siyosati, iqtisodiy barqarorlik va moliyaviy boshqaruv samaradorligini ifodalovchi muhim ko'rsatkichlardan biridir. Budget taqchilligi davlat daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi nomutanosiblikni anglatib, mamlakatning iqtisodiy siyosatini yuritishdagi muvozanat darajasini ko'rsatadi.

So'nggi yillarda global iqtisodiy jarayonlarda kuzatilayotgan beqarorliklar, xususan pandemiya oqibatlari, xalqaro savdo aloqalaridagi uzilishlar hamda geosiyosiy omillar O'zbekiston moliya tizimiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Shunga qaramay, mamlakat iqtisodiyoti o'sish sur'atlarini saqlab qoldi – so'nggi yillarda global iqtisodiy muammolar fonida milliy iqtisodiyot o'sishi 6,5 foizni tashkil etdi. Bu, o'z navbatida, iqtisodiy

siyosatning to'g'ri yo'naltirilganidan dalolat beradi.

So'nggi yillarda budget taqchilligi miqdorining o'sishi, uning sabablari va oqibatlari iqtisodiy tahlilchilar va siyosatchilar e'tiborida bo'lib kelmoqda. Ushbu bo'limda 2024-yilda O'zbekiston davlat budjeti taqchilligi ko'rsatkichlari tahlil qilinadi, asosiy sabablari va moliyalashtirish manbalari ko'rib chiqiladi.

Fiskal barqarorlikni saqlab qolish maqsadida hukumat tomonidan ichki va tashqi moliyalashtirish manbalari diversifikatsiya qilindi, davlat qarzining tarkibiy tuzilishi optimallashtirildi va "yashil budgetlashtirish" tamoyillari bosqichma-bosqich joriy etildi [8].

2024-yil yakuni bilan Konsolidatsiyalashgan budgetning umumiy fiskal balansi taqchilligi belgilangan me'yorlar doirasida ijro etildi va 47,8 trln. so'mni (YaIMning 3,3 foizi) tashkil etdi [9].

2024-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan budjeti daromadlari va xarajatlari o'rtasida ma'lum nomutanosiblik kuzatildi. Quyidagi 1-jadvalda davlat budjeti, maqsadli jamg'armalar va boshqa moliyaviy manbalar bo'yicha ko'rsatkichlar keltirilgan (mlrd. so'mda).

1-jadval

Konsolidatsiyalashgan budget ijrosi* (2024-yil holatiga ko'ra, mlrd. so'mda)

Ko'rsatkichlar	Daromadlar	Xarajatlar	Saldo: profisit (+) / taqchillik (-)
<i>Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari</i>	328 963,4	361 109,5	-32 146,1
<i>Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi</i>	15 960,0	18 537,4	-2 577,4
<i>Tashqi qarz hisobidan davlat dasturlari</i>	-	14 987,7	-14 987,7
<i>Budget tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari</i>	36 521,1	34 653,8	+1 867,3
<i>Konsolidatsiyalashgan budget (jami)</i>	381 444,5	429 288,4	-47 843,9

*Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlandi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, 2024-yilda konsolidatsiyalashgan budget bo'yicha taqchillik 47 843,9 mlrd. so'mni tashkil etgan. Bu holat asosan davlatning ijtimoiy sohalarga yo'naltirilgan xarajatlarning

oshishi, iqtisodiy islohotlarni moliyalashtirish zaruriyati hamda tashqi qarz hisobidan amalga oshirilayotgan investitsion dasturlar hajmining kengayishi bilan izohlanadi.

Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari esa 1 867,3 mlrd. so'm miqdorida profisit (musbat saldo)ni ko'rsatib, ayrim darajadagi moliyaviy barqarorlikni ta'minlagan. Shu bilan birga, Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hamda davlat maqsadli jamg'armalari bo'yicha taqchillik qayd etilgan bo'lib, bu mablag'larning ko'proq iqtisodiy tiklanish va infratuzilma sohalariga yo'naltirilganidan dalolat beradi.

Umuman olganda, 2024-yilda davlat budjeti taqchilligi mamlakat yalpi ichki mahsulotiga nisbatan maqbul darajada saqlangan bo'lsa-da, kelgusi yillarda bu ko'rsatkichni kamaytirish uchun soliq tushumlarini kengaytirish, budjet xarajatlarini optimallashtirish va davlat qarzini samarali boshqarish zarurligi ko'rinib turibdi.

2024-yil yakuni bilan konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligini 47,8 trln. so'm miqdordagi fiskal saldoni qoplash hamda 31,9 trln. so'm miqdoridagi asosiy davlat qarzini so'ndirish maqsadida quyidagi moliyalashtirish manbalaridan foydalanildi:

1. Ichki manbalar hisobiga moliyalashtirish. Davlat tomonidan ichki bozorda qimmatli qog'ozlar – obligatsiyalar va davlat qarz majburiyatlari chiqarildi. Bu vosita orqali tijorat banklari hamda boshqa institutsional investorlardan mablag' jalb etildi. Ichki qarz orqali moliyalashtirish davlatning ichki moliya bozorini rivojlantirish va milliy valyutaning barqarorligini ta'minlashga xizmat qildi.

2. Tashqi manbalar hisobiga moliyalashtirish. Davlat tomonidan xalqaro moliya institutlari (Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki va boshqalar) hamda ikki tomonlama hamkorlik doirasidagi moliyaviy kelishuvlar asosida kredit va grant mablag'lari jalb etildi. Bu mablag'lar asosan infratuzilma, energetika, transport va ijtimoiy sohalaridagi loyihalarni amalga oshirishga yo'naltirildi.

3. Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi resurslari. Jamg'arma mablag'larining bir qismi davlat dasturlarini moliyalashtirish va ayrim strategik loyihalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida yo'naltirildi. Bu mexanizm orqali davlat xarajatlarining ma'lum qismi qayta taqsimlandi.

4. Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari. Budjet tashkilotlari va davlat korxonalari tomonidan shakllantirilgan budjetdan tashqari mablag'lar orqali ayrim investitsion va ijtimoiy dasturlar moliyalashtirildi. Bu usul budjet yukini qisman yengillashtirishga xizmat qildi.

Ushbu chora-tadbirlar natijasida davlat budjeti barqarorligi ta'minlandi, iqtisodiy faoliyat sur'atlari pasayib ketishining oldi olindi hamda davlat qarzining umumiy darajasi qabul qilingan me'yorlar doirasida saqlandi.

Shu tariqa, 2024-yilda budjet taqchilligini qoplash jarayoni fiskal barqarorlikni ta'minlash, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirildi.

2-jadval

Konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligini so'ndirish manbalari*

Tashqi	Ichki
■ xalqaro moliya institutlarining kreditlari va yevrobondlar chiqarish – 33,2 trln. so'm.	■ davlat g'aznachilik obligatsiyalarini chiqarish – 26,2 trln. so'm.
■ davlat maqsadli dasturlarini amalga oshirish uchun qarzlar – 15,0 trln. so'm.	■ davlat aktivlarini xususiyashtirishdan tushumlar – 5,4 trln. so'm.

*Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlandi.


Konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligini (47,8 trln. so'm) qoplash va

31,9 trln. so'm miqdoridagi asosiy qarzni so'ndirish uchun quyidagi manbalardan

yoʻnaltirildi:

1-rasmda keltirilgan maʼlumotlarga koʻra, 2024-yilda konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligini qoplash uchun jami 47,8 trillion

soʻm miqdorida mablagʻ yoʻnaltirilgan boʻlib, bu mablagʻlar tashqi va ichki manbalarga boʻlingan.



1-rasm. Budjet taqchilligini qoplash manbalari tarkibi [9], (2024-yil holatiga, trln. soʻm)

Tashqi manbalar:

❖ Xalqaro moliya institutlarining kreditlari va yevrobondlar chiqarish – 33,2 trillion soʻm. Bu eng yirik moliyalashtirish manbasi boʻlib, tashqi qarzlar hisobidan amalga oshirilgan. Ushbu mablagʻlar, asosan, infratuzilma, energetika, transport va ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirishga yoʻnaltirilgan.

❖ Davlat maqsadli dasturlarini amalga oshirish uchun qarzlar – 15,0 trillion soʻm. Bu mablagʻlar iqtisodiy modernizatsiya, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va hududiy rivojlanish dasturlarini qoʻllab-quvvatlashga xizmat qilgan. Umuman olganda, tashqi manbalar jami 48,2 trillion soʻmni tashkil etib, budjet taqchilligi moliyalashtirilishining asosiy qismini taʼminlagan.

Ichki manbalar:

❖ Davlat gʻaznachilik obligatsiyalarini chiqarish – 26,2 trillion soʻm. Bu ichki moliyaviy resurslarni safarbar etish va milliy moliya bozorini rivojlantirishga qaratilgan chora boʻlib, tijorat banklari hamda yirik investorlar ishtirokida amalga oshirilgan.

❖ Davlat aktivlarini xususiylashtirishdan tushumlar – 5,4 trillion soʻm. Bu manba davlat mulkini iqtisodiyotga jalb etish orqali qoʻshimcha daromad olishni taʼminladi va

budjetga barqaror tushumlar keltirdi. Ichki manbalar jami 31,6 trillion soʻmni tashkil etib, budjet taqchilligini moliyalashtirishda muhim oʻrin egallagan.

Xulosa va takliflar.

Soʻnggi yillarda global iqtisodiyotda kuzatilgan murakkab vaziyatlar sharoitida Oʻzbekiston iqtisodiyoti barqaror oʻsish surʼatlarini saqlab qoldi. 2024-yil yakuni boʻyicha milliy iqtisodiyotning oʻsishi 6,5 foizni tashkil etgani, makroiqtisodiy barqarorlik va fiskal intizomni taʼminlashga qaratilgan samarali siyosat yuritilayotganidan dalolat beradi. Konsolidatsiyalashgan budjetning umumiy fiskal balansi 47,8 trillion soʻmlik taqchillik bilan ijro etilgan boʻlib, bu YaIMning 3,3 foiziga teng. Ushbu natija belgilangan meʼyorlar doirasida amalga oshirilgan boʻlib, davlat moliyaviy siyosatining muvozanatni saqlashga qaratilganligini koʻrsatadi.

Budjet taqchilligini qoplashda tashqi va ichki manbalar muhim rol oʻynagan. Tashqi moliyalashtirish manbalari sifatida xalqaro moliya institutlarining kreditlari hamda yevrobondlar chiqarilishi (33,2 trln. soʻm), shuningdek, davlat maqsadli dasturlarini amalga oshirish uchun jalb qilingan qarzlar

(15,0 trln. so'm) hisoblangan. Ichki moliyalashtirish manbalari esa davlat g'aznachilik obligatsiyalarini chiqarish (26,2 trln. so'm) va davlat aktivlarini xususiylashtirishdan tushgan mablag'lar (5,4 trln. so'm) orqali shakllangan.

Ushbu ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasi davlat moliyasini boshqarishda diversifikatsiyalashgan yondashuvni qo'llab, ichki va tashqi resurslardan muvozanatli foydalanmoqda. Bu esa budjet barqarorligini ta'minlash, iqtisodiy

o'sishni rag'batlantirish va ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Kelgusida fiskal siyosatni yanada takomillashtirish, davlat qarzining xavfsiz darajasini saqlash, ichki resurslardan samarali foydalanish hamda soliq-budjet mexanizmlarini raqamlashtirish orqali budjet taqchilligini kamaytirish istiqbollari mavjud. Shu yo'l bilan O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sishi va makroiqtisodiy barqarorligi yanada mustahkamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. 2024-yilgi Davlat budjeti ijrosi to'g'risida hisobot. – Toshkent, 2025.
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Pul-kredit siyosati sharhi. – Toshkent, 2024.
3. Smith, A. *An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations*. – London, 1776.
4. Ricardo, D. *Principles of Political Economy and Taxation*. – London, 1817.
5. Marshall, A. *Principles of Economics*. – London: Macmillan, 1890.
6. Keynes, J.M. *The General Theory of Employment, Interest and Money*. – London: Macmillan, 1936.
7. Malikov T.S., Haydarov N.X. *Moliya nazariyasi*. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018. – 312 b.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori PQ-4907-son. Davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish to'g'risida. – Toshkent, 2024.
9. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. *Fuqaro uchun budjet – 2024*. – Toshkent, 2024.